

YOSHLAR O'RTASIDA MAFKURAVIY PROFILAKTIKA OLIB BORISHNING MUHIM JIHATLARI

Madraximov Jahongir

Namangan davlat universiteti,
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo'nalishi MIG'-AU-21 guruh talabasi
madrakhimovjakhongir@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.13253268>

IMPORTANT ASPECTS OF IDEOLOGICAL PREVENTION AMONG YOUNG PEOPLE

Madrakhimov Jahangir

Namangan State University,
National idea, foundations of spirituality and legal education
student of the MIG-AU-21 group
madrakhimovjakhongir@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar o'rtasida mafkuraviy profilaktika olib borishning muhim jihatlari tahlil qilinadi. Mafkuraviy profilaktikaning yoshlar o'rtasida axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy tarbiyada qanday rol o'ynashi, uni amalga oshirishda samarali usullar va yondashuvlar haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birga, zamonaviy mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishda yoshlar o'rtasida profilaktika olib borishning dolzarbligi yoritiladi.

Abstract: This article analyzes the important aspects of ideological prevention among young people. The role of ideological prevention in moral, spiritual and social education among young people, effective methods and approaches to its implementation are discussed. At the same time, the relevance of prevention among young people in the fight against modern ideological threats is highlighted.

Kalit so'zlar: Yoshlar, mafkuraviy profilaktika, ma'naviyat, axloqiy tarbiya, ijtimoiy tarbiya, zamonaviy tahdidlar, yondashuvlar, profilaktika usullari.

Key words: Youth, ideological prevention, spirituality, moral education, social education, modern threats, approaches, methods of prevention.

Kirish: Hozirgi zamonda yoshlar o'rtasida mafkuraviy profilaktika olib borishning ahamiyati ortib bormoqda. Yoshlar dunyoqarashi, ma'naviyati va axloqiy tamoyillarini shakllantirish maqsadida profilaktika tadbirlari amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada yoshlar o'rtasida mafkuraviy profilaktika olib borishning muhim jihatlari va usullari tahlil qilinadi.

Metodlar: Tadqiqotda adabiyotlar tahlili metodlari qo'llanildi. Asosiy e'tibor o'zbek milliy ta'lim tizimi, ma'naviyat va axloqiy tarbiya yondashuvlarini o'rganishga qaratildi. Shuningdek, zamonaviy olimlarning asarlari ham tahlil qilindi. Keltirilgan ma'lumotlarga muhim dalillar bilan bog'liq misollar keltirilgan.

Natijalar: Umuman olganda globallashuv sharoitida turli yot g'oyalarni kirib kelishi va ularga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda mafkuraviy profilaktika zaruriy vazifalardan biriga aylanmoqda. Mafkuraviy profilaktika – ijtimoiy institutlar tomonidan

amalga oshiriladigan turli shakldagi g'oyaviy-mafkuraviy ishlar majmui bo'lib, u butun g'oyaviy tarbiya tizimini qamrab oladi. Mafkuraviy profilaktika g'oyaviy bo'shliqni tugatish, mafkuraviy profilaktikaning oldini olish yoki biror-bir hudud, qatlam, guruhni yot va zararli g'oyalar ta'siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda g'oyaviy ta'sirning xilma-xil usul va vositalaridan foydalaniladi.

Mafkuraviy profilaktika tezkor va qisqa sur'atda yoki asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin. Birinchi holatda zudlik bilan chora-tadbirlar qo'llash lozim bo'lsa, ikkinchi holda doimiy va sobit qadamlik bilan ish olib borish ko'proq natija beradi. Ta'kidlab o'tganimizdek, mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda ham mafkuraviy profilaktikaning o'rni katta. Zero, u mohiyatan yot g'oyalarning kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlarga tayanadi. Yoshlarda ta'lim tarbiya va targ'ibot va tashviqot tizimi orqali mafkuraviy profilaktikani amalga oshirishga yordam beradi.

Yoshlarda sog'lom mafkurani xalq qalbi va ongiga singdirishga xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmalar, oila, maktab, mahalla, davlat va jamoat tashkilotlari ham unda o'z o'rniga ega. Shuningdek, Vatan, xalq manfaatlarini, do'stlik va birodarlikni, o'zaro hurmat va bag'rikenglikni targ'ib-tashviq etuvchi ertaklar dostonlar, qo'shiqlar raqslar, turli ko'rinishdagi va mazmunga ega bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mafkuraviy profilaktikani amalga oshirish shaklidir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mafkuraviy profilaktika mafkuraviy immunitet tushunchalari uzviy aloqador bo'lib, muayyan bir yaxlitlikni o'zida ifoda etadi. Zero, targ'ibot va tashviqot ishlari va uning usul va vositalari mafkuraviy immunitetning shakllanishiga olib keladi.

Yoshlarni u yoki bu maqsadga yo'naltirish, tarbiyalash ikki tomonlama jarayon bo'lib, bunda targ'ibot subyektlari (targ'ibotchilar, TV, radio, matbuot) va targ'ibot obyektlari (shaxs, aholi) ishtirok etadi, bu esa o'z o'rnida profilaktika ishlarining samaradorligini belgilaydi. Targ'ibot va tashviqot samaradorligi yoshlar siyosiy ongida **targ'ibotgacha** va **targ'ibotdan keyingi darajalar** orasidagi farqda bilinadi. Yoshlar mafkurasidagi o'zgarishlar ilmiy yutuqlarga asoslangan holda olib borilsa, targ'ibot va tashviqot samarasini aniqlash va takomillashtirish mumkin bo'ladi.

Mafkuraviy profilaktika samaradorligi, eng avvalo jamiyatni mafkuraviy tarbiyalashdan natija qanday bo'lishi kerak ekanligini aniq belgilanishiga bog'liq.

Bu jarayonining eng muhim yo'nalishlaridan biri mafkuraviy profilaktikadir. "Profilaktika" atamasi tabiiy fanlarda, ayniqsa meditsinada ko'proq qo'llanilishiga o'rganib qolganmiz. U meditsinada kasallikning oldini olish va davolash jarayonining tarkibiy qismi sifatida tushuniladi.

G'oyalar falsafasi nuqtayi nazaridan **"Mafkuraviy profilaktika"** ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakllardagi g'oyaviy-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlar majmui bo'lib, butun g'oyaviy tarbiya tizimini qamrab oladigan faoliyatni ifodalash uchun qo'llaniladigan tushunchadir. Mafkuraviy profilaktika g'oyaviy bo'shliqni tugatish, mafkuraviy parokandalikning oldini olish yoki biror-bir hudud, qatlam, guruhni yot va zararli g'oyalar ta'siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda g'oyaviy ta'sirning xilma-xil usul va yo'llaridan foydalaniladi, turli vositalar qo'llaniladi.

Mafkuraviy profilaktika tezkor va qisqa sur'atlarda yoki asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin. Birinchi holatda zudlik bilan chora-tadbirlar qo'llash lozim bo'lsa, ikkinchi holda doimiy va sobitqadamlik bilan ish olib borish ko'proq natija beradi.

Jamiyatning xilma-xil sohalari va aholining turli qatlamlari orasida mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda ham mafkuraviy profilaktikaning o'zni katta. Zero, u mohiyatan, yot g'oyalar kirib kelishining oldini olish va ular ta'sirini yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlarga tayanadi.

Ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot tizimi mafkuraviy profilaktikani amalga oshirishga yordam beradi. Bunyodkor g'oyalarni xalq qalbi va ongiga singdirishga xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmalar, oila, maktab, mahalla, davlat va jamoat tashkilotlari ham unda o'z o'rniga ega. Shuningdek, Vatan, xalq manfaatlarini, do'stlik va birodarlikni, o'zaro hurmat va bag'rikenglikni targ'ib-tashviq etuvchi ertaklar-u dostonlar, qo'shiqlar raqslar, turli ko'rinish va mazmundagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mafkuraviy profilaktikani amalga oshirish shakllaridir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar vositasida mafkuraviy profilaktika ta'sirchanligini oshirib borish mafkuraviy immunitetni shakllantirish va uni mustahkamlashning asosiy vazifalardan biridir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yosh avlodni nafaqat zamonaviy ilm-fan yutuqlari asosida tarbiyalash imkonini yaratadi, shu bilan birga globallashuv jarayonida turli ko'rinishdagi mafkuraviy tajovuzlar haqida tasavvurlarni ham oshirib borishga yordam beradi. Yosh avlodni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash, mustaqil fikrlash tushunchasini shakllantirishda mafkuraviy profilaktika mohiyatida milliy qadriyatlar, sharqona demokratiya elementlarini uzluksiz va uzviy tarzda singdirib borish kerak.

Ma'lumki, tafakkur qulligi har qanday qaramlikdan ham dahshatli ekanini alohida ta'kidlash lozim. Hozirgi davrda mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ko'proq kuchga ega bo'lib borayotgan bir paytda, insonlar, ayniqsa, yoshlar har xil yot mafkuralar ta'siriga berilmaslik uchun mafkuraviy jihatdan qurollangan bo'lmog'i zarur. Bunda g'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkinligi mafkuraviy kurashning yangicha konsepsiyasidir.

Oila, mahalla va o'quv muassasalarining mafkuraviy profilaktika jarayonidagi o'zni katta bo'lib, barkamol avlod tarbiyasi, jamiyatning istiqbolini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday profilaktika murakkab, doimiy, tizimli yondashuvlarni o'z ichiga olib, unda jamiyatning har bir a'zosi faol qatnashadi, jamiyatning muhim bo'g'inlari hisoblangan oila, mahalla va o'quv muassasalarining doimiy hamkorlikdagi, mushtarak maqsad yo'lidagi intilishlari uyg'unlanishini talab qiladi. Bu jarayon umumiy manfaat va maqsadlar sari jamiyatda tarbiyaning vorisliligini ta'minlovchi makonni vujudga keltiradi. Bu makon yosh avlod, komil inson tarbiyasining ajralmas qismidir.

Shuningdek, g'oyaviy tarbiyada fan, ta'lim, adabiyot va san'atning roli alohida bo'lib, sohada ularning imkoniyatlaridan foydalanish asosiy vazifalaridan biridir. Yosh avlod fanni o'rganish bilan tabiat va jamiyat, tafakkurdagi o'zgarishlar, taraqqiyot asoslari va tamoyillarini o'rganadi. Ayni paytda shu jarayonni milliy g'oyaning mazmun-mohiyati bilan bog'lash va uni har bir shaxsning o'z hayotida aks etishi oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishishda muhim ahamiyatga ega. Mustaqillikni mustahkamlashda va istiqloq imkoniyatlardan samarali foydalanishda, shubhasiz mafkuraviy targ'ibot vositalaridan bo'lgan kitoblar, darsliklarda ifodalangan bilimlarning o'zni katta. Chunki yosh avlod ongi va qalbiga

milliy mafkuraning ezgu qadriyatlarini jo qilishda aynan shu targ'ibot vositalaridan oqilona foydalanish eng samarali yo'l hisoblanadi.

Milliy g'oyaning shaxs, barkamol avlod tarbiyasidagi hamda bugungi mafkuraviy tarbiyani takomillashtirishda o'ziga xos turfalikni mujassam etgan san'at asarlaridan ham o'rinni foydalanish lozim. San'atning qaysi bir turini olib ko'rmaylik, ularda bugungi voqelik, tariximiz, ijtimoiy munosabatlarning turli ko'rinishlari o'z aksini topgan. Shuningdek, ushbu san'at asarlarini mafkuraviy tarbiyani targ'ib qilishning samarali usuli sifatida ham ko'rish mumkin.

Bugungi kunda yoshlar tarbiyasida uchrab turadigan ayrim illatlar mentalitetimizga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan G'arb madaniyatining «san'at asarlari» orqali kirib kelmoqda. Uning salbiy oqibatlari yoshlarimizning ayrim holatlarda nojo'ya xatti-harakatlari, axloqidagi uchrayotgan qusurlar mafkuraviy profilaktikani kuchaytirish masalasiga yanada chuqurroq e'tibor qaratishi taqozo qiladi.

G'oyaviy profilaktikaning asosiy vazifalaridan biri komil insonni shakllantirish va uni amalga oshirishga bo'lgan intilishlar insoniyat sivilizatsiyasining ma'no-mazmunini tashkil qiladi. Tarixga nazar tashlasak, har qanday jamiyatda komillikning eng asosiy ko'rsatkichi insonning ezgulikka, ijtimoiy baxt-saodatga, gumanistik g'oyalarga munosabatida hamda ularga asoslangan amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi. Ya'ni jamiyatning umumiy rivojiga, insoniyat sivilizatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi komillik mezoni insonni, shaxsni barkamol qilish orqali jamiyatni baxtli, saodatli qilishdan iborat bo'lib kelgan.

Komil inson va jamiyat munosabatlarida o'zaro bog'liq bo'lgan ikki jarayonni ko'rish mumkin. Birinchisi komil insonning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qilishi. Komil inson g'oyasining mavjudligi va u bilan bog'liq amaliyot jamiyat rivojlanish darajasini belgilaydigan mezon sifatida namoyon bo'ladi. Zero, biz har qanday jamiyatni unda yashayotgan kishilarning xatti-harakatlariga qarab baholaymiz. Ikkinchisi jamiyatning xarakteri uning komil insonni tarbiyalash borasidagi imkoniyatlarida, unga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Ya'ni erkinlik, mustaqillik komil inson g'oyasini amalga oshirish uchun tegishli shart-sharoit yaratadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda komil insonni tarbiyalash uchun ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-tashkiliy vazifalar davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishi etib belgilangan. Zero, barkamol avlod kelajagi uchun qayg'urmagan xalq, millat va davlatning istiqboli bo'lmaydi.

Mafkuraviy profilaktikada zamonaviy usullarga asoslanish muhim ahamiyatga ega. Bu boradagi tarbiyani amalga oshirishning vositalari ko'p. Hozirgi kunda fuqarolarni ijtimoiy va siyosiy jihatdan tarbiyalab borish zaruriyatidir. Bunda ularda siyosiy ong, siyosiy qarash va siyosiy madaniyatni shakllantirish muhim o'rin tutadi. Buning uchun oila, ta'lim tizimi, mahalla va ish joylarining orasida shunday mexanizm shakllanishi kerakki, har bir inson bolaligidan to umrining oxiriga qadar siyosiy voqelikni va ijtimoiy hayot jarayonlarini to'g'ri idrok qilsin. Aholida zamonaviy madaniyatni shakllantirish ham nihoyatda muhim. Bunda milliy va umuminsoniy madaniyat uyg'unligi asosida tarbiyalash, odamlarni erkin va mustaqil fikrlashga, mushohada yuritishga, oila va qavm-qarindoshlarni hurmat qilishga, dunyoda bo'layotgan har bir voqelikka o'z munosabatini bildirishga o'rgatish nihoyatda muhim.

Mafkuraviy profilaktika jarayonida yoshlar ruhiyatini ko'taradigan, uning ichki, botiniy qudratini namoyon etadigan tadbirlarni ko'proq tashkil etish, shu ruhdagi adabiy-badiiy asarlar, ilmiy-publitsistik tadqiqotlarni ko'paytirishni rag'batlantirish, ularni omma ongiga

singdirishga erishish, mustaqillik davrida erishilgan yutuqlarning ahamiyati, salohiyati va jozibasini ko'rsatish, istiqloq, xalq erki, milliy davlatchiligimiz eng sharaqli, eng muqaddas qadriyat ekanini odamlar ongiga muntazam singdirib borish katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o'zbek xalqining jahon madaniyatiga qo'shgan beqiyos hissasini keng miqyosida yoritib borish, o'zbek tilining dunyo tillari oilasidagi mavqei, go'zalligi va imkoniyatlarini yorqin misollar orqali namoyon etish, turli tadbirlar o'tkazish asosida ta'lim va tarbiyani har doim qo'shib olib borish, oila, mahalla va o'quv yurtlarida ma'naviy tarbiyaga alohida e'tibor berish kabi chora-tadbirlarning ham mafkuraviy immunitetni shakllantirish va mustahkamlashda o'z o'rni bor.

Bundan tashqari, Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrisabz va boshqa qadimiy shaharlarga sayohatlar uyushtirish, ulug' insonlar xokini ziyorat qilish, o'lmas tarixiy obidalarimiz, ajdodlar madaniyati bilan tanishtirish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ikkinchidan, istiqloq yillarida bunyod bo'lgan yangi binolar, chiroyli bog'lar, ravon yo'llar ham katta ma'naviy tarbiya vositasidir. Bunyodkor xalqimizning amalga oshirayotgan ishlarining ahamiyatini yoshlar anglab etishi lozim.

Xullas, bugungi kunda jamiyat hayotida kechayotgan jarayonlarni chuqur tahlil qilish, turli g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlardan ogoh bo'lish, xorijdan kirib kelayotgan mamlakatimiz manfaatlari, milliy an'ana va qadriyatlarimizga yot g'oya va qarashlar qanday maqsadni ko'zlayotganini anglab yetish ham mafkuraviy profilaktikaga yordam beradi. Bu borada ommaviy axborot vositalari, radio, televidenie orqali aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida izchil targ'ibot va tashviqot ishlarini yo'lga qo'yish, ularning ta'sirchanligini oshirishga erishish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar o'rtasida profilaktikaning olib borishda quyidagi targ'ibot-tashviqot, mafkuraviy tizim faoliyati va ma'naviy-ma'rifiy ishlarga tizimli yondashish uyg'unlikda olib borish profilaktikaning muhim jihatlarini ochib beradi.

1. Targ'ibot (arab. Qiziqtirish, tarqatish) – 1) keng ma'noda, ijtimoiy faoliyatning alohida turi bo'lib, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida ilmiy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy g'oya va qadriyatlarni targ'ib etishdir. Targ'ibot jarayonida fan, san'at, siyosiy va mafkura yutuqlari keng ommalashtiriladi, boyitiladi va yanada rivojlantiriladi. 2) tor ma'noda, mafkura va siyosatni targ'ib etishga qaratilgan faoliyat. Targ'ibot ilmiylik, konkretlik, obyektivlik, ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog'liqlik tamoyillariga asoslanishi, tashkiliy jihatdan uyushgan bo'lishi lozim.

Targ'ibot – biror g'oya, ta'limot, fikr va qarashni aholi o'rtasida keng yoyish, kishilar ongiga singdirishga qaratilgan, aniq maqsadni ko'zlab olib boriladigan tushuntirish va da'vatni, odamlarni muayyan bir vazifani hal qilish, ma'lum bir tartib-qoidalar asosida yashash, mehnat qilishga ma'naviy-ruhiy tayyorlash, g'oyaviy ruhlantirish, safarbar qilishni anglatadi.

2. Tashviqot – odamlarga ta'sir o'tkazish maqsadida yozma va og'zaki qilinadigan ishlar; undash, da'vat qilish, shu asosda ularning qalbida zavq-shavq, muhabbat yoki nafrat uyg'otishni o'z ichiga oladi. Tashviqot (lot. Agitation – harakatga keltirmoq) – ma'lum bir ijtimoiy guruh yoki ommani ko'zlangan maqsad sari faollikka undaydigan targ'ibot faoliyatidir. Tashviqotning og'zaki, nashriy va audio-vizual turlari mavjud bo'lib, u g'oyat ta'sirchan ijtimoiy-siyosiy kurash vositasi hisoblanadi.

Barcha zamon va makonlarda ham har qanday o'z xalqi kelajagini o'ylagan mamlakatda aholi davlat tomonidan olib borilayotgan siyosat, islohotlar, o'zgarishlardan ma'lum darajada

xabardor qilib borilgan. Bu esa jamiyatni birlashtirish, umummilliy maqsadlar yo'lida safarbarlikni ta'minlab, davlat va jamiyat birligiga erishishdek ezgu maqsadlarga xizmat qilgan.

2. Ma'furaviy tizim – ma'furaviy ishlarni boshqarish, jamiyatning turli ijtimoiy institutlari: oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy ta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, mehnat jamoalari, mahalla kengashlari, jamoat tashkilotlari, madaniy-ma'rifiy uyushmalar tarbiyaviy imkoniyatlarini muvofiqlashtirish, tartibga solish, ularni yagona maqsad tomon yo'naltirish omillari (ish vaqti va ishdan keyingi bo'sh vaqt) va vositalari (fan, adabiyot, san'at, matbuot, radio, televidenie, kino, muzey va h.k.), uslublari (tushuntirish, ishontirish, majbur qilish) va usullarining (alohida, jamoaviy, ommaviy) yaxlit bir butun uyushmasi. Shuningdek, *ma'furaviy tizim* ma'furaviy ta'sir yo'nalishlari (aqliy, axloqiy, huquqiy) va uning asosiy sohalarini (mehnat, jismoniy, estetik, ekologik, jinsiy va hokazo) ham o'ziga qamrab oladi. *Ma'furaviy tizim* bir butun yaxlit uyushma bo'lib, doimo o'zgarib turadi. Ushbu tizim samaradorligi ma'furaviy ta'sir jarayonining uzluksizligiga, tabaqalashganligiga, kompleks yondashuvga bog'liq. Ma'furaviy ishlar ta'sirchanligi, hozirjavobligini oshirishda aholi turli tabaqalarining o'ziga xos milliy-psixologik, regional, kasb-kor, yoshlik xususiyatlarini inobatga olish ham muhim ahamiyatga egadir.

3. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarga tizimli yondashish – aholi (go'dak, o'smir, o'spirin, katta yoshlilarni respublika mustaqilligini mustahkamlashga qodir, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega fuqaro, yuqori malakali mutaxassis etib tarbiyalashga yo'naltirilgan barcha tarkibiy qismlar (pedagoglar, o'quvchi, talaba yoshlar, darsliklar, axborot texnologiyalari, ta'lim muassasalari, ota-onalar, qonunlar, ilm-fan, moliya, davlat va jamoatchilik tashkilotlari, ishlab-chiqarish korxonalari va h.k.)ning o'zaro uzviy bog'langan holda rejali ravishda ishlashini ta'minlashga asoslangan tartibotdir.

Xulosa: Yoshlar o'rtasida ma'furaviy profilaktika olib borishning muhim jihatlari shuni ko'rsatadiki, bu jarayon ularning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Ma'furaviy profilaktika orqali yoshlarni turli tahdidlardan himoya qilish va ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish imkoniyati mavjud. Milliy qadriyatlarni singdirish va zamonaviy texnologiyalar orqali ularga to'g'ri axborot yetkazish maqsadida mo'tadil ta'lim usullari va kreativ yondashuvlar qo'llanilishi samaradorlikni oshiradi. Shuningdek, axborot va media savodxonligini oshirish orqali zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida bu yo'nalishda yanada chuqurroq ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishi zarur.

References:

1. Mirziyoyev, Sh. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz." Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Navoiy, Alisher. "Mahbub ul-Qulub." Toshkent: Adabiyot, 1982.
3. Karimov, I. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch." Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Qodiriy, A. "O'tgan kunlar." Toshkent: O'zbekiston, 2016.
5. Cho'lpon. "Kecha va Kunduz." Toshkent: Yangi Nashr, 2017.
6. Abdurauf Fitrat. "Adabiyot yulduzlari." Toshkent: Sharq Nashriyoti, 1927.
7. Abdulla Avloniy. "Turkiy Guliston yoxud axloq." Toshkent: Ma'naviyat, 1992.
8. Erkin Vohidov. "Bahor qaytadi." Toshkent: Yangi Asr, 2002.

9. Toshkenboyeva, Dilbarxon. "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar." Toshkent: O'zbekiston, 2015.

INNOVATIVE
ACADEMY